

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-2

O'ZBEKISTON DAVLATIMIZ GERBIDAGI RAMZIY MA'NOLAR SAKKIZ QIRRALI YULDUZ TIMSOLIDA

Fayziyev Xayrullaxon Omonilloyevich

Mudofaa Vazirligi harbiy xizmatchisi, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
Bioorganik kimyo instituti erkin tадqiqotchisi (PhD)

fayziyevxayrullaxon@gmail.com

Vapayev Sardor Rajabbayevich

Mudofaa Vazirligi harbiy xizmatchisi

Qodirov To'xtamurod Ilhomovich

Mudofaa Vazirligi harbiy xizmatchisi

Jomov Anvar Parhodovich

Mudofaa Vazirligi harbiy xizmatchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada davlat ramzlari, ulardagi ramziy ma'nolar shuningdek Vatanparvarlik xissi nimadan boshlanishi hamda harbiy Vatanparlik mazmun mohiyati xususida fikr yuritiladi. Hozirgi kunda Davlat, Ramz tushunchalarini anglamasdan "Vatanparvar" inson va jamiyatni qurib bo'lmasligi hayotiy jarayonlarda o'z aksini topganligi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar:

Vatan, gerb, ramz, sakkiz qirrali yulduz, humo qushi, Davlat, siymo, harbiy vatanparvarlik anglash.

Annotation: This article discusses state symbols, their symbolic meanings, as well as the origin of the sense of patriotism and the meaning of military patriotism. Currently, information is given that the fact that it is impossible to build a "patriotic" person and society without understanding the concepts of the State and the Symbol is reflected in the life processes.

Keywords: Motherland, coat of arms, symbol, eight-pointed star, Humo bird, State, image, military patriotism.

Абстрактный: В данной статье рассматриваются государственные символы, их символические значения, а также происхождение чувства

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6.4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-2

патриотизма и значение военного патриотизма. В настоящее время дается информация о том, что невозможно построить «патриотического» человека и общества без понимания понятий Государства и Символа, что отражается на жизненных процессах.

Ключевые слова: Отечество, герб, символ, восьмиконечная звезда, птица Хумо, Государство, фигура, военный патриотизм.

O‘zbekiston Respublikasi qonun bilan tasdiqlanadigan o‘z davlat ramzlari — bayrog‘i, gerbi va madhiyasiga ega. Davlat ramzlari har bir xalqning mustaqilligi, tinchligi va barqarorligi timsoli bo‘lib, el-yurtimizning g‘ururi, iftixori bo‘lgan bu ramzlarda tariximiz, boy ma’naviy-madaniy merosimiz, milliy urf-odat va an‘analarimiz o‘z ifodasini topgan.

Milliy ramzlarimiz — Vatanimiz suvereniteti, xalqimizning nafaqat azaliy umid va istaklari, balki porloq kelajagi timsollari bo‘lgani tufayli ularni hurmat qilish, asrash barchamizning fuqarolik burchimizdir. Zero, “O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi to‘g‘risida”gi qonunning 8-moddasida “O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari, shuningdek O‘zbekistonda turgan boshqa shaxslar O‘zbekiston Respublikasining Davlat gerbini hurmat qilishlari shart”, deb belgilab qo‘yilgan.

Binobarin, Davlat gerbi mamlakatning siyosiy, milliy, geografik, etnik va boshqa o‘ziga xos xususiyatlari, boy tarixiy an‘analarini ifodalaydi. Undagi har bir timsol esa milliy an‘ana va qadriyatlarimizning boqiyligi, ma’naviyatimiz yuksakligi, iroda va e’tiqodimiz mustahkamligi ramzidir.

Gerbdagi har bir rang, har bir belgida muayyan ramziy ma’no bor. O‘ng tomondagi paxta va g‘arq pishgan bug‘doy boshoqlari xalqimizning mehnati halol, rizqi butun ekanligini ifodalasa, gerbning yuqori qismida mamlakatimiz jipsligining ramzi sifatida sakkiz qirrali yulduz tasvirlangan. Unda o‘z ifodasini topgan yarimoy qo‘lga kiritilgan mustaqilligimizni, yulduz esa xalqimiz hamisha komillikkha intilishi hamda saodatga eltuvchi yo‘lni tanlaganini bildiradi.

Baxt va erksevarlik timsoli hisoblangan afsonaviy Humo qushi qadimdan baxt, davlatmandlik ramzi, erk, saodat, himmat, oljanoblik, omad timsoli hisoblangan. Hazrat Alisher Navoiy «Lison ut-tayr» dostonida Humoni baxt va iqbol, ezgulik hamda ulug‘vorlik keltiruvchi qush sifatida tasvirlagan. Ushbu ramzlar va timsollar xalqimizning tinchlik, yaxshilik, baxt-saodat, farovonlik yo‘lidagi orzu-umidlarini

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-2

ifodalaydi. Undagi gullagan vodiy uzra nur sochayotgan quyosh tasviri zaminimizning serquyoshligiga, xalqimiz intilayotgan nurafshon manzillarga ishoradir. Bundan roppa-rosa 29 yil avval, ya’ni 1992-yil 2-iyulda O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi to‘g‘risida»gi qonun qabul qilingan edi. Mazkur hujjatda Davlat gerbi mustaqilligimiz ramzlaridan biri ekani huquqiy asosda mustahkamlab qo‘yilib, uning qanday ko‘rinishga egaligi yaqqol ifodalab berildi. Qonuning 4-moddasiga muvofiq, Davlat gerbi tasviri O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorgohlari, Oliy Majlisi palatalari, Vazirlar Mahkamasi, respublika davlat boshqaruvi organlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi va Vazirlar Kengashi, mahalliy davlat hokimiyati organlari binolarining old tomoniga joylashtirildi. Shuningdek, oliy ramzimiz tasviri muhrlarda va davlat idoralari zarvaraqlarida, rasmiy nashrlarda, qog‘oz va tanga pullarda, qimmatli qog‘ozlar va fuqarolar pasportida hamda qonunda belgilangan boshqa o‘rinlarda aks ettirildi [1].

Milliy davlatchiligmiz tarixining barcha davrlarida davlat ramzları, xususan, bayroq Vatan timsoli sifatida muqaddas sanalgan. Bayroq qadim-qadimdan har bir xalq uchun mustaqillik, hurlik, tinchlik va barqarorlik timsoli bo‘lib kelgan. Ajdodlarimiz ham yurt bayrog‘ini muqaddas bilib, uni ko‘z qorachig‘idek asraganlar. Davlatchiligmiz tarixining qaysi davrini olib qaramaylik, bayroq ajdodlarimiz uchun ozodlik, kuch-qudrat, jasorat, g‘alaba timsoli bo‘lgan. Buyuk bobomiz Amir Temur ham davlat ramzlariga jiddiy e’tibor qaratganini jang maydonida bir lashkar omon qolsa ham, Vatani bayrog‘ini baland tutishiga farmon bergenidan bilsa bo‘ladi. U kishi g‘oliblik bayrog‘ini yuksak ko‘tardi. Bu bayroq ostida buyuk el birlashdi, u barpo etgan ulug‘ saltanatni dunyo tan oldi. Sohibqiron bobomiz zamonida bayroqni past tutish yoki sarbozning qo‘lidan tushib ketishi xosiyatsiz sanalgan. Bunga sohibqiron alohida e’tibor bergen. Bayroqning pasaytirilishi mag‘lubiyat va ortga chekinish ishorasi bo‘lgan.

Bugun davlatimiz bayrog‘ining qabul qilinganligiga 31 yil to‘ldi. 1991-yilning 18-noyabri esa “O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i to‘g‘risida”gi qonun qabul qilingan sana sifatida tariximizga muxrlandi. Zotan, bayroq bu – erkinlik, ozodlik, tinchlik va barqarorlik timsolidir. U bor ekan, millat bor, davlat bor, Vatan bor. O‘zbekiston Respublikasi davlat bayrog‘i to‘g‘risida»gi qonun 1991-yil 18-noyabrdagi dushanba kuni O‘zbekiston Respublikasi oliy kengashining navbatdan tashqari o‘tkazilgan VII sessiyasida qabul qilingan [2].

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-2

Ayrim tarixiy manbalarga qaraydigan bo‘lsak davlat ramzlari xususida har xil fikrlar mavjud misol tariqasida “Gerb” so‘zining tarixi haqida qisqacha to‘xtalib o‘tsak:

“Gerb” so‘zi Nemischa “erbo” so‘zidan olingan bo‘lib, shohlar va hukmdorlarga davlat, sarhad, hudud va boshqa naslga meros qoluvchi mulk belgilarini anglatadi.

Bundan 2500 yillar oldin Eron Oltoygaga qadar cho‘zilgan ulkan sarhadda hukm surgan O‘g‘uzxon davrida ham turkcha “tamg‘a” so‘zi aynan shu ma’noni bildirar edi. XII asrning mashhur tarixchisi Rashididdin Hamadoniy “Tanlangan tarixlar” kitobida shahodat berishicha, O‘g‘uzxon o‘z mol – mulkini o‘g‘illariga ulush sifatida kichik davlatlarga bo‘lib, in’om etgan. Ushbu davlat hukmdorlari ham o‘zining xonlik “tamg‘alari”ga ega bo‘lganligi keltirib o‘tilgan [3].

O‘zbekiston Respublikasi Davlat “Gerbi” haqida fikr yuritar ekanmiz uning ramziy belgilardan biri bo‘lgan *sakkiz qirrali* yulduz xususida alohida quyidagi fikrlarni keltirish lozim.

8 qirrali yulduz uzoq va murakkab tarixga ega ramzdir. Ko‘plab turli madaniyatlar uni asrlar davomida ishlatgan, ularning har biri ramzga o‘z ma’nosini bergen.

Umuman olganda, 8 qirrali yulduz ko‘pincha poklik, kuch va **himoyani ifodalash uchun ishlatiladi**. U omad olib kelish va yovuz ruhlarni qo‘riqlash uchun tumor sifatida ham ishlatilishgan.

Kelib chiqishi. Sakkiz qirrali yulduz noma'lum, ammo u qadimgi davrlarga borib taqaladi. Belgidan birinchi marta eramizdan avvalgi 3000-yillarda bobilliklar foydalanishgan. Ular uni kulolchilik va zargarlik buyumlarida dekorativ naqsh sifatida ishlatishgan, ammo bu belgi ularning ma’buda Ishtar bilan ham bog‘lar edi. Ishtar yunon Afroditasi va Rim Venerasi bilan tenglashtirilgan.

Sakkiz qirrali yulduz keyinchalik Qadimgi Misrda paydo bo‘lgan va u yerda ma’buda Isis bilan bog‘langan. . Sakkizta raqam qadimgi Misr mifologiyasida ham muqaddas hisoblangan, bu Ogdoadning tabiat - sakkizta ibtidoiy xudolar guruhi. Bu xudolar ba’zan sakkiz qirra bilan ifodalangan.

Sakkiz qirrali yulduzning ilmiy jixatdan asoslanishi:


ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-2

-8 qirrali yulduz muvozanat va uyg'unlik ramzidir. Bu belgi bizga hamma narsa bir-biriga bog'langanligini va hayotimizda muvozanatga intilishimiz kerakligini eslatadi.

-8 nuqta 4 elementni (olov, havo, suv va yer) va 4 yo'nalishni (shimol, janub, sharq va g'arb).

-8 nuqta, shuningdek, oyning 8 fazasini ifodalaydi, bu biz koinotning tabiiy ritmlari bilan bog'langanligimizni eslatadi. Bu sakkizta fazalar yangi oy, o'sayotgan yarim oy, birinchi chorak, o'sayotgan oy, to'lin oy, kamayib borayotgan gibbous, uchinchi chorak va kamayib borayotgan yarim oy.

8 qirrali yulduz va kompas



Ammo bu sakkiz qirrali yulduz tarixan aynan bir narsaga borib taqalmagani bois uning asosiga nafaqat diniy balki boshqa soha ham o'ziga tegishli deb moneylik qila olmaydi. Yuqoridagi ma'lumotlarning barchasi uni tinchlik, jipslik timsoli ekanligini anglatadi.

Xulosa: Yuqorida tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko'rsatadiki "Gerb" dagi birgina sakkiz qirrali yulduzning tarixi 3000 ming yillik uzoq o'tmishlarda mavjud bo'lganligi ham ushbu ramzimizning qudrati yuqori ekanligini yaqol isbotidir. Bugungi kunda yoshlarni Vatanparvarlik ruhida tarbiyalashni anashunday

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-2

elementlardan boshlansa menimcha judda mustahkam va a'lo darajada bo'ladi boyisi tarix hamda ramzlar kelajakning mustaxkam poydevori bo'lib xizmat qiladi.

Bu kabi ma'lumotlar insonlarni ezgulik, jipslik Vatanparvarlik va Harbiy Vatanparvarlik xissini uyg'otish hamda qalb tubidagi ona Vatanga bo'lgan mehirni yuksak darajada namoyon bo'lishga undaydi. Zero "Vatan muqaddas" uni asrash barchamiz uchun ham qarz, ham farz hisoblanadi. Uni anglab yetib uzoqni ko'zlab harakat qilish oliy burchimizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Davlat gerbi-mustaqlilik timsoli// Aktam Haitov. Xalq so'zi gazetasi. Iyul 2021.

2."BAYROG'IM FAXRIM MENING"// Qo'shayev Hikmat Yarash o'g'li, Abdullayev Jamshid Ulug'bekovich, Tangirov Mirzohid Aktam o'g'li. *JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS. Volume-17_Issue-4_November_2022*
<http://www.newjournal.org/>

3. Ma'naviyat – qalb quyoshi// Farhod Xolsaidov, O'rionboy Boboyorov, Feruza Hasanova. Ma'lumotnama. Toshkent, "O'qituvchi" NMIU 2011.